

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan 2024-yilning
I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha

M A’ L U M O T

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida muhim tashkiliy-huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizimli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Ushbu sa’y-harakatlarning asosiy negizida “Inson qadri uchun” degan ezgu tamoyil mujassam ekani alohida diqqatga sazovordir.

Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida **“Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo, albatta, muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”** deya qayta-qayta ta’kidlab kelmoqdalar.

Madaniyat vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati 2024-yil I yarim yillikdagi faoliyatini “Madaniyat vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan vazirlik hududiy tarkibiy bo‘linmalari hamda tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi yuzasidan 2024-yilda o‘tkaziladigan o‘rganishlar rejasi” asosida amalga oshirdi.

Sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish maqsadida madaniyat vazirining 2023-yil 29-sentyabrdagi 130-son buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Siyosati qabul qilingan.

2023-yil yakunlari bo‘yicha vazirlik markaziy apparati va vazirlik tasarrufidagi barcha tizim tashkilotlari xodimlaridan manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi bo‘yicha yillik deklaratsiyalar olindi.

2024-yilning I yarim yilligi davomida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi bilan hamkorlikda Madaniyat vazirligi tasarrufidagi madaniyat boshqarmalari boshliqlari, bosh hisobchilari, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘limi xodimlari, ixtisoslashtirilgan san’at maktablari direktorlari uchun 11 ta guruhda 215 nafar tinglovchiga 132 soatlik

o'quv soatlari tashkil etildi. Ularda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, madaniyat sohasiga daxldor farmonlar va qarorlar, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini keng tushuntirish, moliyaviy savodxonlikni oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, joriy yilning birinchi choragi davomida vazirlikning tegishli buyruqlari asosida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, uning Toshkent shahar va Toshkent viloyati hududiy bo'limlari (vazirlikning 2024-yil 1-fevraldagi 52-son buyrug'i), "O'zbekiston davlat filarmoniyasi" davlat muassasasi va uning Toshkent viloyati hududiy bo'linmasida (vazirlikning 2024-yil 19-fevraldagi 77-son buyrug'i) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlar samaradorligi yuzasidan o'rganish ishlari o'tkazildi.

2024-yilning ikkinchi choragi davomida Toshkent shahar madaniyat boshqarmasida (vazirlikning 2024-yil 2-apreldagi 165-son buyrug'i), Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri (vazirlikning 2024-yil 26-apreldagi 219-son buyrug'i), Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi, Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri va Xorazm viloyati musiqali drama teatri faoliyatida (vazirlikning 2024-yil 8-maydagi 245-son buyrug'i) korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligi yuzasidan o'rganish ishlari o'tkazildi.

O'rganish natijalari bo'yicha "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati bo'limi xodimlari, "O'zbekiston davlat filarmoniyasi" davlat muassasasi va uning Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi bilan bevosita hamda ZOOM platformasi orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'limlari, teatr xodimlari ishtirokida yig'ilishlar o'tkazildi.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati va tegishli mutaxassislar ishtirokida davlat xaridlariga oid qonunbuzilishi holatlari yuzasidan Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani madaniyat bo'limi, Urganch ixtisoslashtirilgan maqom san'ati maktab-internati va Qo'qon shahar 7-son bolalar musiqa va san'at maktabida, Konimex tumani madaniyat bo'limida 5 ta xizmat tekshiruvi o'tkazildi hamda o'rganish yakunlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalariga muvofiq 8 ta holatda mutasaddi xodimlarga qonunchilikda belgilangan tartibda ta'sir choralari qo'llanildi.

Mazkur holatlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi tizim tashkilotlariga davlat xaridlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlar talablariga rioya etilishini qattiq nazoratga olish, davlat xaridlarini amalga oshirishda va boshqa moliyaviy faoliyat davomida tegishli qonun hujjatlariga rioya

etmasdan, manfaatlar to‘qnashuviga va korrupsion xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ygan xodimlar qonunchilikda belgilangan tartibda jazoga tortilishlari haqida vazirlikning 2024-yil 26-martdagi 04-11-28-899-son ko‘rsatmasi yuborildi.

Olib borilgan targ‘ibot va ogohlantirishlarga qaramay, qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etmagan **8 nafar** mas’ul rahbar hamda mansabdor shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilindi, **7 nafariga** esa “hayfsan” intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

Ma’lumki, 2022-yil 12-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash quyidagi beshta yo‘nalish bo‘yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshiriladi:

davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko‘rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot tadbirlarining samaradorligi.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan 2023-yil yakunlari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalariga ko‘ra Madaniyat vazirligi faoliyati 65 ball bilan **“qoniqarli”** deb topildi.

Joriy yilning I yarim yilligi davomida jismoniy va yuridik shaxs vakillari tomonidan Madaniyat vazirligiga korrupsiyaga oid jami 4 ta murojaat kelib tushdi. Ushbu murojaatlarning 3 tasi pochta orqali, 1 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi orqali kelib tushdi. Barcha murojaatlar tegishli mutaxassislar ishtirokida o‘rganib chiqilib, ariza mualliflariga javob xatlari yuborildi.

Madaniyat vazirligida tashkil etilgan korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari (https://t.me/antikorrupsiya_madaniyat_bot) orqali 2024-yilning I yarim yilligi davomida korrupsiyaga oid xabarlar kelib tushmadi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ–210-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida barcha Madaniyat vazirligi va tizim tashkilotlarida “Manfaatlar to‘qnashuvi” holatlariga yo‘l qo‘yilmasligi yuzasidan ishlar to‘liq nazoratga olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan joriy yilning birinchi choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 2024-yil 27-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida brifing tashkil etildi. Brifing “O‘zbekiston 24” telekanali va ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirda namoyish qilindi.

Brifing havolasi:

<https://www.facebook.com/share/v/ACY1oSakrG36jJ8j/?mibextid=oFDknk>

<https://www.youtube.com/watch?v=70uvVvKNLOA>

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati**